

“IJTIMOIY TARMOQ”

Tursunov Asilbek Hayrullayevich

Bo'lajak O'zjoku talabasi

e-mail: asilbek20050730@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ijtimoiy tarmoq” ning insonga bo‘lgan ijobiy va salbiy tomonlari ota – onalarning bu sotsial tarmoqlarga bo‘lgan aloqasi. Qolaversa muallif tomonidan bevosita undan to‘g‘ri foydalanishga chorlov bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya.

Ijtimoiy tarmoq, - xalq tili bilan aytganda “internet” bu hozirda bizni hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib qolgan unsur hisoblanadi. Kimlardir u yerga ish bilan yoki foydali va o‘zi uchun kerak bo‘lgan ma‘lumot ilinjida kirsam, kimlardir esa hatto soatlab bemani va keraksiz bo‘lgan kontentlarni tomosha qilish bilan qimmatli vaqtini sarf qiladi. Shaxsan men o‘ylaymanki, agar inson bu sotsial tarmoqlardan to‘g‘ri foydalansa, bu faqat va faqat insoniyat uchun manfaatli va judayam foydali texnika vazifasini bajaradi. Buning barchasi esa bizning o‘z qo‘limizda shuning uchun ham men ijtimoiy tarmoqni qoramayman, chunki bu yaqin do‘stlar, qarindosh yoru birodarlarni uzog‘ini yaqin qilishga, dunyoning qay bir nuqtasidan bo‘lmasin, ularni diydor ko‘rishib suhbat qurushlariga ishdan charchagan insonlarda esa ozgina chalg‘ib, kino yoki boshqa sifatli kontent foydali va kerakli videolarni ko‘rishga, yangiliklarni o‘qib jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda bo‘layotgan voqea hodisalarni qulay tarzda kuzatib borishga yordam beradi. Buning hammasi aynan shu internet orqali qulay shaklda bizga tuhfa qilinadi. Salbiy tomoniga keladigan bo‘lsak, bu albatta internetdan noto‘g‘ri va meyordan ortiq foydalanishdir, noto‘g‘ri deganda bu bexayo va shunga o‘xshash chirkin videolar kuzatuvchisi bo‘lish, har hil onlayn qimor o‘yinlarida qatnashish va shunga o‘xshash bemani va keraksiz bo‘lgan manqurt illatlarni misol qilib ko‘rsatishim mumkin. Buni barchasini zamirida mening o‘ylashimcha nosog‘lom muhit va to‘g‘ri berilmagan tarbiya deb o‘ylayman, chunki bu narsalarni barchasi yaxshilikka olib kelmasligini, bizning milliy an‘ana urf – odat, va diniy qadriyatlarimizga mutlaqo zid ekanligini aynan ota - ona farzandining bolalik chog‘idanoq miyyasiga singdirib, uni hamisha to‘g‘ri nazorat qilib kelishsa bolani bunday bemani narsalar ko‘rishga yoki foydalanishga layoqati bo‘lmaydi. Chunki u biladiki bunday narsalar har tomonlama insonni yo‘q qilishini, keyin esa albatta bunga aslo aralashib qolmaydi. Ota onaning eng katta mas‘uliyati ham aynan shu farzandiga bergan har tomonlama sog‘lom, va muqaddas bo‘lgan tarbiyasi hisoblanadi. Barchangizni “Ijtimoiy tarmoq” lardan hamisha to‘g‘ri foydalanib va aslo, bu borada adashmaslikka chorlab qolaman.

Maqola to‘liqligicha muallifning subyektiv fikrlari bilan boyitilgan.